



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AVTOMOBIL YO‘LLARI QO‘MITASI**

BUYRUQ

2025-yil “28” - noyabr

№ 75

Toshkent shahri

**“O‘zyo‘lloyiha loyiha-qidiruv
instituti” davlat unitar korxonasini
tashkiliy-huquqiy shaklini
o‘zgartirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 24-martdagi PQ–102-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari va muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablariga muvofiq **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ–102-son qarorining 1-ilovasiga asosan “O‘zyo‘lloyiha loyiha-qidiruv instituti” davlat unitar korxonasining ustav fondidagi **49 foiz davlat ulushi** ommaviy savdolar orqali sotiladigan korxonalarning aksiya paketlari (ulushlari) ro‘yxatiga kiritilganligi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2025-yil 7-noyabrdagi 283-son buyrug‘i ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur buyruq bilan:

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalari va davlat muassasalarini xo‘jalik jamiyatlariga o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 33-bandiga muvofiq davlat unitar korxonasi xo‘jalik jamiyati etib o‘zgartirilayotganda uning mulki inventarizatsiyadan o‘tkazilishi va xo‘jalik jamiyati ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori mulk baholashdan o‘tkazilmagan holda, soliq organlariga taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma‘lumotlariga asosan belgilanishi ko‘rsatilganligi;

Davlat aktivlari agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasining 2025-yil 6-martdagi 51-son buyrug'iga asosan xatlovdan o'tkazish komissiyasi tuzilganligi;

Korxonaning barcha mol-mulklari xatlovdan o'tkazilganligi hamda mol-mulklari balans (qoldiq) qiymati **910 796 734,96 (to'qqiz yuz o'n million yetti yuz to'qson olti ming yetti yuz o'ttiz to'rt so'm to'qson olti tiyin)** so'mni tashkil etganligi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi Toshkent shahar soliq boshqarmasining 2025-yil 7-apreldagi 22-120702-son xatiga muvofiq "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" davlat unitar korxonasi tomonidan taqdim etilgan oxirgi buxgalteriya balansi ma'lumotlariga asosan uning ustav kapitali aktiv qiymati **200 000 000,0 (ikki yuz million)** so'mni tashkil etganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" MChJning ustav kapitali **200 000 000,0 (ikki yuz million)** so'm miqdorida tasdiqlansin va 100 foiz ulushi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasiga belgilangan tartibda topshirilsin.

4. "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" davlat unitar korxonasi qayta tashkil etish yo'li bilan "O'zyo'lloyiha loyiha-qidiruv instituti" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga o'zgartirilsin.

5. Mazkur buyruqning o'rnatilgan tartibda ijrosini nazorat qilish raisi o'rinbosari A. Abduraxmonovga zimmasiga yuklatilsin

Qo'mita raisi



J. Tursunov